

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

“Kiritdi”  
O'zbekiston davlat  
konservatoriysi rektori

K.T.Urinbayev

10 «iyun» 2024-yil

“Kelishildi”  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligi

“Tasdiqlayman”  
O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi

10 «iyun» 2024-yil «20» iyun 2024-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI**  
**VA BAHOLASH MEZONI**

**60211300 – Ta'lif yo'nalishi: Dirijorlik**

**60211301 – Akademik xor dirijorligi**  
**ta'lif yo'nalishi uchun**

Toshkent – 2024 yil

Dastur O‘zbekiston davlat konservatoriyasining O‘quv – uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan (20\_\_\_\_\_ - yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ sonli majlis bayoni)

**Tuzuvchilar:**

**Kadirova S.P.** – O‘zDK, “Akademik xor dirijorligi” kafedrasi mudiri, professor

**Djumaeva L.X.**- O‘zDK, “Akademik xor dirijorligi” kafedrasi professori

**Shamaxmudova B.V.** - O‘zDK, “Akademik xor dirijorligi” kafedrasi professori

**Ergasheva Ch.E.** - O‘zDK, “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi kafedrasi mudiri, dotsent, (PhD)

**Mirtalipova I.M.** - O‘zDK, “Musiqa nazariyasi” kafedrasi mudiri, (PhD)

**Taqrizchilar:**

**Malikova D.M.** - O‘zDSMI, “Vokal” kafedrasi professor v.b.

**Sharafieva N.S.** - “Akademik xor dirijorligi” kafedrasi professori

## **Kirish**

60211301 – Dirijorlik: “Akademik xor dirijorligi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-fan (ijodiy, kasbiy) ixtisoslikdan imtihon dasturi, 2-fan “Musiqqa tarixi va nazariyasi” fanidan abituriyentlarning amaliy-nazariy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asarlarni dirijorlik qilish, bilim va ko‘nikmalarini talab darajasida bilishi kerak. Shu bilan birga fortepiano asarlaridan tayyorlangan dasturni ijro qiladilar va musiqiy-nazariy bilim darajasi tekshiriladi.

Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

### **1-fan**

#### **“DIRIJORLIK: AKADEMIK XOR DIRIJORLIGI”**

##### **Fanning maqsadi va vazifalari**

60211301 – Dirijorlik: Akademik xor dirijorligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, aql zakovati hisobga olingan tarzda me’yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Ixtisoslik” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Sof intonatsiya, xor partituralarni varaqdan o‘qish, badiiy va texnik jihatdan asarlarni dirijorlik qilish kabi professional bilim darajalariga e’tibor qaratiladi. “Ixtisoslik” fani yuzasidan abiturient davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san’at sohasiga oid fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

#### **60211301 – “AKADEMIK XOR DIRIJORLIGI SAN’ATI”**

“Akademik xor dirijorligi san’ati” mutaxassisligi bo‘yicha kirish imtihonlari quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

- Dirijorlik dasturini ijro etish
- Kollokvium
- Fortepianoda ijro dasturi

#### **Dirijorlik dasturni ijro etish**

Turli temp va xarakteri bir biriga kontrast bo‘lgan ikkita xor asarlarni dirijorlik qilib berish: a kapella (jo‘rsiz) va jo‘rli xor uchun asarlar. Shulardan biri, O‘zbekiston kompozitorlarining asari bo‘lishi kerak.

Dirijorlik qilish jarayonida abituriyentning quyidagi dirijorlik xislatlariga baho beriladi: Dirijor apparati va boshlang‘ich texnik, emotsionalligi, temperament (tabiat), ritm, pulsatsiya hissiyoti usullarni egallashligi.

## **Kollokvium**

Abituriyentga qo‘yiladigan talablar:

- fortepianova maxsus tayyorlab kelgan a kapella xor partiturasini yoddan ijro etish;
- maxsus tayyorlangan a kapella partiturasidagi ovozlardan birini gorizontal bo‘yicha (taklash bilan) vaakkordlarning ketma-ketligini vertikal bo‘yicha yoddan kuylab berish;
- 4 ovozli xor partiturasini varaqdan o‘qish: fortepianova chalish, ovoz va vertikalakkordlarni kuylab berish;
- intervallarni, uch tovushlik va septakkordlarni yechilishi bilan, xalq musiqasi ladlarini eshitib aniqlash;

Abituriyentning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlab beruvchi og‘zaki savollar kiritilishi kerak:

- xor adabiyoti, terminologiya bo‘yicha bilimlar.

## **Dirijorlik qilish uchun asarlarning namunaviy ro‘yxati:**

### **a) jo‘rsiz xorlar**

Burhonov M.	-Yorlarim, Bibigul, Zarra-gul, Sari ko‘hi baland, Sayra, Go‘zal qizga, Chashmi siyoh
Umidjonov B.	- Diliman, Illila yor, Qora soch, Lapar, Qomuzchu, Go‘zal
Sharafieva N.	-Sayribog‘, Deydiyo, Nasihat, Ey, nozanin
Nechaev Ye.	- Bibijan, Zar do‘ppi, Chashmoni siyohi tu
Brams I.	-В ночной тиши
Kalinnikov V.	-Жаворонок, Зима, Кондор
Kyui S.	-Засвистилась в дали, Уснуло все
Lasso O.	-Tik - tak, Эхо
Mendelson F.	-Лес, Предчувствие весны
Prosnak K.	-Mope
Pulen F.	-Грусть
Sviridov G.	-Повстречался сын с отцом, Старинный танец
Taneev S.	-Венеция ночью, Сосна
Chesnokov P.	-Не цветочек в поле вянет, Эльфы

Chaykovskiy P.	-Ночевала тучка золотая, Соловушко
Shuman R.	-Ночная тишина
Shubert F.	-Любовь, Вечерняя звезда

**b) Jo‘rli xor uchun:**

Akbarov I.	- “Muborak”
Ashrafi M.	- “Bo‘ron”, “Dilorom” operalaridan xor sahnalari
Bize J.	- “Кармен” operasidan xor sahnalari va parchalari
Borodin A.	- “Князь Игорь” operasidan Introduktsiya “Слава” xori va xor sahnalari
Brams I.	- “Цыган” qo‘sishig‘i.
Vagner R.	- “Лоэнгрин” operasidan to‘y xori
Verdi Dj.	- “Аида”, “Риголетто”, “Трубадур” operalaridan alohida xorlar
Gendel G.	- “Самсон” oratoriyasidan xorlar
Glinka M.	- “Иван Сусанин”, “Руслан и Людмила” operalaridagi alohida xorlar
Dargomijskiy A.	- “Русалка” operasidan xor sahnalar va fragmentlar
Motsart V.	- “Свадьба Фигаро”, “Идоменей” operalarin alohida xorlar
Nasimov M.	- “Dilbarim” syuitasidan xorlar
Sviridov G.	- “Поэма памяти Сергея Есенина” poema-kantatasidan xorlar
Sadikov T., Glier R.	- “Layli va Majnun” operasidan xorlar.
Raxmaninov S.	- “Алеко” operasidan - “Как вольность весел наш ночлег”, “Огни погашены” xorlari
Rimskiy-Korsakov N.	- “Снегурочка”, “Садко”, “Царская невеста” operalaridan xorlar
Rajabiy Yu., Mushel G.	- “Farxod va Shirin” operasidan xorlar
Chaykovskiy P.	- “Yevgeniy Onegin”, “Pikovaya dama” operalaridan alohida xorlar
Yudakov S.	- “Mirzacho‘l” сюитасидан, “MeningVatanim”, “O‘zbekiston” kantatalarinig va “Maysaraning ishi” operasidan xorlar
Shuman R.	- “Цыгане”

Izoh: Imtihon komissiyasi abituriyentning ijro dasturini tanlash, dirijorlik qobiliyatani aniqlanganda asarlar ijrosini cheklash, shu bilan birga ijro qilinadigan asarni qisqartirish yoki to‘xtatish huquqiga ega.

## BAHOLASH MEZONI:

<u>Nº</u>	<b>Ijro talablari</b>	<b>To‘liq ijro va javob uchun ball</b>
1.	Dirijor apparati va boshlang‘ich texnikasi, emotzionalligi, temperamenti (tabiat)	5
2.	Ritm, pulsatsiya hissiyoti usuliga egaligi	5
3.	Intonatsiya sofligi	15
4.	Eshitib aniqlash qobiliyati	15
5.	A kapellani yoddan chalish	5
6.	Ovoz va vertikallarni yoddan kuylab berish	5
7.	4 ovozli a kapella asarni varaqdan o‘qib berish (fortepianoda ijro etish)	5
8.	Ovoz va vertikallarni varaqdan o‘qish	10
9.	Xor adabiyoti, terminologiya bilimlari,	5

Akademik xor dirijorligi san’ati bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball  
– **70 ball**

### **“FORTEPIANO”**

**fani**

#### **Abituriyent ijro dasturiga qo‘yiladigan talablar**

Imtihon jarayonida abituriyentlar uchun vazifa belgilanadi: ikkita asardan iborat dasturni ijro etish. Dastur polifonik (XVI – XX a.) va etyud asarlaridan tuziladi. Ijro sifatiga qo‘yiladigan talablar:

- asar matnini aniq ijro etish (metroritm, temp, dinamika)
- texnik erkinlikni namoyish qilish
- musiqiy asarni shaklini to’g‘ri tuzish
- asarning badiiy mazmunini yetkazib berish.

#### **“Fortepiano” fanidan asarlarning namunaviy ro‘yxati:**

##### **Polifoniya asarlari:**

- |            |  |
|------------|--|
| I.Matteson | -Syuita c-moll   |
| I.S.Bax    | -2 ovozli invensiya (erkin tanlov), 3-x x ovozli invensiya №1-15, XTK tom 1 Prelyudiya va fuga c-moll, d-moll, B-dur, Fantaziya c-moll, Fuga d-moll, Syuita B-dur, «Французские сюиты» (erkin tanlov), «Английские сюиты» a-moll, Prelyudiya Burre g-moll, Gavot, Alemanda |

G.Gendel	e-moll, Маленькие прелюдии и фуги, Капричио из партиты c-moll,
I.S.Bax - D.Kabalevskiy	-12 легких пьес, Sarabanda, Jiga, Prelyudiya, Allemanda.
M.Glinka	- “8 organ prelyudiya va fuga” (erkin tanlov)
N.Myaskovskiy	-Fuga a-moll i Es-dur
D.Shostakovich	-op 78 Fuga h-moll; or 43 Fuga “В старинном стиле”
S.Maykapar	-op 34 Prelyudiya №4, op 87 Prelyudiya va fuga №1
D.Kabalevskiy	-op 8 Fugetta gis-moll, op 37 Prelyudiya va fugetta a-moll
	-Prelyudiya va fuga “Летним утром на лужайке”

### **Etyudlar**

K.Cherni	-op 299 (erkin tanlov) op 740 (erkin tanlov)
K.Cherni – G.Germer	-Избранные фортепианние этюды ch.2
A.Leshgorn	-Избранные фортепианные этюды (эркин танлов)
I.Kramer	-60 избранных этюдов 1,3,4,7,8,10
L.Shitte	-Etyudlar (erkin tanlov)
G.Lemuan	-Etyudlar (erkin tanlov)
M.Klementi – K.Tauzig	-Etyudlar № 1,2,3,5,
Arenskiy	-2 ta Etyud op 41 № 1, op 42 № 3
M.Moshkovskiy	-Etyud №2, №6
A.Gedike	-soch.101 “12 Мелодических этюдов”
A.Bertini	-soch. 29 va 32 Сборник “28 избранных этюдов”

### **BAHOLASH MEZONI:**

	<b>Ijro dasturi uchun belgilangan talablar</b>	<b>Ijro uchun ball</b>
1.	Asarni belgilangan repertuarga muvofiqligi	6,0
2.	Asarni belgilangan tempda va texnik jihatdan erkin ijro etish	6,0
3.	Asarda metroritm, dinamika, intonaziy va shtrix talablari	6,0
4.	Asarni ijrosi janr va mazmuniga muvofiqligi	5,0

“Fortepiano” fani bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **23.0 ball**

Mazkur ta’lim yo‘nalishida ijodiy imtihon (Akademik xor dirijorligi san’ati va Fortepiano) uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **93,0 ball.**

## 2-fan

### MUSIQA TARIXI VA NAZARIYASI

“Musiqa tarixi va nazariyasi” fanidan sinovlar 3 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent “Musiqa adabiyoti” fani boyicha og‘zaki savollarga javob berishi lozim.

2-bosqichda abituriyent “Garmoniya” fani boyicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

3-bosqichda abituriyent “Solfedgio” fani boyicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

1-bosqich “Musiqa adabiyoti” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Musiqa adabiyoti” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Ma’lumki, musiqiy asarlarni ijro etilishida ularning yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakl tamoyillari yuzasidan bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi. Shunga ko‘ra abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- musiqiy asarlarni yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakl tamoyillarini bilish;
- mumtoz musiqaning yetuk namunalari xususida birlamchi bilimga ega bo‘lish.

### **Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar**

Abituriyent “Musiqa adabiyoti” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligini og‘zaki yoki yozma holda namoyish etishi, o‘z javobini musiqiy namunalarni fortepiano sozida chalib ko‘rsatish yoki kuylab berish orqali tasdiqlashi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyentning eruditsiya, madaniy hodisalarni anglash, musiqa san’atining tarixiy jarayonlardagi ahamiyatini tushunish kabi xususiyatlari yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

#### “Musiqa adabiyoti” fanidan og‘zaki topshiriqlar:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari va h.k.);

b) o‘rta maxsus ta’limning umumiy kursi darajasida musiqa adabiyotidan egallagan bilimlarni tekshirish;

v) janr va shakl nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi;

Shuningdek, “Musiqa adabiyoti”da abituriyentning musiqa san’ati va boshqa san’at turlaridan, o‘zbek va chet el musiqasida ma’lum va mashhur asarlar, zamonaviy an’analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

## **1-bosqich bo‘yicha baholash**

<b>Nº</b>	<b>Savollar mazmuni</b>	<b>To‘liq javob uchun ball</b>
1.	Asarga oid savollar	3,0
2	Chet el musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	6,0
3	O‘zbek musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	6,0
4	Asarning janr va shakli nuqtai nazaridan tahlili	6,0

**1-bosqich “Musiqa adabiyoti” bo‘yicha baholash uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 21,0 ball**

**2-bosqich “Garmoniya”** fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko’nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- klassik garmonianing nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik tushunchalarini qo‘llash orqali Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish, diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.

### **Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar**

Abituriyent “Garmoniya” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda og‘zaki mashqlarni xatosiz bajarish, garmonik qonuniyatlarini yechimini fortepianoda erkin namoyon etish, tahlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko’nikmalarini namoyish qilish, shuningdek, fan bo‘yicha egallagan bilimlarini ko‘rsatish. Talabaning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

**“Garmoniya” fanidan abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

### **OG‘ZAKI TOPSHIRIQLAR**

1. Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.
2. Diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.

## **2-bosqich bo‘yicha baholash**

<b>Nº</b>	<b>Savollar mazmuni</b>	<b>To‘liq javob uchun ball</b>
1.	Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish.	15,0
2.	Diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.	6,0

**2-bosqich “Garmoniya” fani uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 21, 0 ball.**

**3-bosqich “Solfedjio”** fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganlini namoyish etishdan iboratdir. Solfedjio fani bo‘yicha talabalar o‘rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

### **Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar**

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda notaga qarab kuylash, musiqiy-nazariy va amaliy ko‘nikmalarini namoyish qilish, shuningdek, fan bo‘yicha egallagan bilimlarini ko‘rsatish. Talabaning solfedjio fanidan qobiliyatini yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

#### **“Solfedjio” fanidan abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

##### **OG‘ZAKI:**

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijorlik qilib kuylash
2. Notanish ikki ovozli misollarni dirijorlik qilib kuylash
3. Interval vaakkordlarni eshitib aniqlash.

#### **3-bosqich boyicha baholash**

<b>Nº</b>	<b>Savollar mazmuni</b>	<b>To‘liq javob uchun ball</b>
1.	Notanish bir va ikki ovozli misollarni dirijorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to‘g’ri aniqlash	2 ballgacha;
b)	Sof kuylash	7 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish	6 ballgacha.
2.	Interval vaakkordlarni eshitib aniqlash.	6 ballgacha.

3-bosqich “**Solfedjio**” fani uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **21,0 ball**.

“Musiqa tarixi va nazariyasi” fani uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **63,0 ball**

**Mazkur ta’lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo‘yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.**

## **Ijodiy imtihonni o‘tkazish tartibi**

60211301 – Dirijorlik: Akademik xor dirijorligi ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O‘zbekiston davlat konservatoriysi binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o‘tkaziladi. Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo‘yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o‘tkazadi.

## **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan (vaqtidan) boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat abituriyent o‘zi to‘plagan ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

O‘zbekiston davlat konservatoriysi Musiqa san’ati fakulteti tomonidan  
2024-2025 o‘quv yilida 60211301 – Dirijyorlik (Akademik xor dirijyorligi)  
yo‘nalishi bo‘yicha abiturientlardan kasbiy (ijodiy)  
imtihonlar o‘tkazish uchun tuzilgan dasturga

## TAQRIZ

Oliy ta’limning bakalavriat ta’lim tizimida abiturientlardan kasbiy imtihonlar qabul qilishlarning kasbiy tayyorgarligi, ijro mahorati va musiqiy layoqatini aniqlash maqsadida kafedralarda kasbiy (ijodiy) imtihonlari o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.


Ma’lumki, 60211301 – “Akademik xor dirijyorligi san’ati” ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak xor dirijorlarini tayyorlash bo‘yicha abiturientlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlar xor asarlarini dirijorlik kilish mahoratini va kolokvium ishini qo‘llay olishi bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Dasturda barcha ijrochilik ta’lim yo‘nalishlarida bo‘lganidek, xor dirijorligida ham abiturient avvalo o‘zining ijrosini namoyish etishi asosiy talab etib ko‘rsatilganligi muhim ahamiyatga ega. Ijodiy imtihonning ushbu qismi bo‘yicha baholash mezonining yuqori qilib belgilanganligi, shuningdek, dirijorlik va kolokvium talablarining to‘liq va mukammal tuzilganligi maqsadga muvofiq.

Mazkur dastur orqali abiturientlar bilimini ob’ektiv baholash imkoniyati yuzaga keladi. Dasturdan joy olgan fanlar bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar o‘rta umum ta’lim maktablar va kasb-hunar kollejlarining dasturlari asosida o‘quvchilarining egallashi lozim bo‘lgan talablar asosida tuzilgan, hamda barcha talablarga mos keladi.

Qayd etilgan fikrlarga asosan, 60211301 – Dirijorlik (Akademik xor dirijorligi) yo‘nalishi bo‘yicha abiturientlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlar qabul qilish va OTMga kirish uchun tuzilgan mazkur dasturni amaliyatga tavsiya etaman.

**O‘zDK professori**



The stamp contains the text "XODIMLAR BOLIMI" and "O‘ZBEKISTON KONSERVATORIYASI".

**N.S.Sharafieva**

O‘zbekiston davlat konservatoriysi Musiqa san’ati fakulteti tomonidan  
2024-2025 o‘quv yilida 60211301 – Dirijyorlik (Akademik xor dirijyorligi)  
yo‘nalishi bo‘yicha abiturientlardan kasbiy (ijodiy)  
imtihonlar o‘tkazish uchun tuzilgan dasturga

## TAQRIZ

Respublikamizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bo‘lajak mutaxassis kadrlarni jahon andozalari darajasida tayyorlash ko‘zda tutilgan. Buning uchun Oliy ta’limning bakalavriat ta’lim tizimida abiturientlardan kasbiy imtihonlar qabul qilishlarning kasbiy tayyorgarligi, ijro mahorati va musiqiy layoqatini aniqlash maqsadida kafedralarda kasbiy (ijodiy) imtihonlari o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. **60211301** – Dirijyorlik (Akademik xor dirijyorligi) ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak xor dirijyorlarini tayyorlash bo‘yicha abiturientlar musiqiy asarlarni dirijyorlik va musiqiy-nazariy bilimlarni tekshirish maqsadida ish bajaradilar.

Dastur o‘qishga kiruvchilarni har tomonlama sinovdan o‘tkazishni maqsad qilib olgan. Unda abiturientning ijro mahoratini aniqlash uchun alohida talablar, uning musiqiy tafakkuri va dunyoqarashini aniqlashga qaratilgan kollokvium, shuningdek, bo‘lg‘usi talaba uchun zarur bilim va ko‘nikmalarini aniqlash imkoniyatlari yaratib berilgan. Shuningdek, dasturga ijodiy imtihonda ijro etilishi talab qilinadgan asarlar ro‘yxati ham kiritilganligi ijodiy imtihonlarni yuqori darajada o‘tkazilishiga turtki bo‘ladi.

Dasturdan joy olgan fanlar bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar o‘rta umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlarining DTS va namunaviy dasturlari asosida o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan davlat talablari asosida tuzilgan hamda davlat talablariga mos keladi.

Qayd etilgan fikrlarga asosan, **60211301** – Dirijyorlik (Akademik xor dirijyorligi) yo‘nalishi bo‘yicha abiturientlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlar qabul qilish va OTMga kirish uchun tuzilgan mazkur dasturni amaliyatga tavsiya etaman.

**O‘zDSMI,**  
**Professor v.b.**



**O‘zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san’at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san’ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg‘u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san’ati ta’lim yo‘nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga**

### **TAQRIZ**

Taqdim etilayotgan 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san’at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san’ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg‘u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san’ati ta’lim yo‘nalishlari uchun ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturlari “Musiqa tarixi va nazariyasii” fanidan iborat bo‘lib, o‘z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval “Musiqa adabiyoti” fanidan nazariy bilimlariga, musiqa ilmidagi fikrlashlariga e’tibor beriladi. Ikkinchisi bosqichda “Garmoniya” fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ijro etilishi orqali ochib berilishini nazarda tutadi. Uchinchi bosqichda “Solfedgio” fanida kuy misollarini sof intonatsiyalash muhim bo‘lib, nazariy bilimlarni amaliyotdagi aksini namoyish etishdan iborat.

Musiqa ilmining barcha ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musiqa adabiyoti, o‘zbek musiqa adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda musiqashunoslikka oid maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy-nazariy fanlar bo‘yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchillikkarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko‘rsata olishi, xususan notadan kuylay olishi, xalq ladlari, major-minor turlari, interval vaakkordlarni kuylay olishi va tinglab aniqlashi zarur bo‘ladi.

Mazkur o‘quv dastur mantiqan izchil va to‘g‘ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta’lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

**O‘zDK “Musiqa nazariyasii” kafedrasi**

**katta o‘qituvchisi**



**S.Maxmudova**

**O‘zbekiston davlat konservatoriysi 60211300-Dirijorlik; 60211301-  
Dirijorlik: Akademik xor dirijorligi, 60210100-Texnogen san’at (musiqiy  
ovozi rejissyorligi), 60211401-Vokal san’ati: akademik xonandalik, 60211501-  
Cholg‘u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san’ati ta’lim  
yo‘nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga**

### **TAQRIZ**

Mazkur 60211300-Dirijorlik; 60211301-Dirijorlik: Akademik xor dirijorligi, 60210100-Texnogen san’at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san’ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg‘u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san’ati ta’lim yo‘nalishlari uchun taqdim etilayotgan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi “Musiqa tarixi va nazariyasi” fanidan iborat bo‘lib, o‘z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturlentlar avval “Musiqa adabiyoti” fanidan nazariy bilimlari, musiqa ilmidagi fikrlashlariga e’tibor beriladi. Ikkinci bosqichda “Garmoniya” fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy jihatdan ohib berib, uchinchi bosqichda “Solfedgio” fanida nota yozuvida savodli o‘qish mashqlari baholanadi.

Musiqa ilmining barcha ta’lim yo‘nalishlarida tahlil olishni istayotgan abiturlentlar uchun jahon xalqlari musiqa adabiyoti, o‘zbek musiqa adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqa nazariy fanlar bo‘yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko‘rsata olishi, shuningdek notaga qarab kuylay olishi, lad, interval vaakkordlarni kuylab, so‘ngra tinglab aniqlay olishi zarur bo‘ladi.

Mazkur o‘quv dastur mantiqan izchil va to‘g‘ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta’lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

**O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov  
nomidagi MESI “Musiqa nazariy va  
tarixiy fanlar” kafedrasini mudiri, Isf.f.d. (PhD)**



**N.T.Xamdamova**